

MIFOLOGEMA – IBTIDOIY QARASHLAR BILAN BOG‘LIQ LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA

Ashurov Dilmurod

University of Business and Science

Filologiya fakulteti dekani

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida mifonim, mifologema, mifoteonim, mifoantroponim tushunchalari haqida so‘z boradi. Bu terminlarning xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, dostonlarda qo‘llanilish o‘rinlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mif, mifonim, mifologema, mifoteonim, mifoantroponim, lingvokulturologik birlik.

ABSTRACT

This article discusses the concepts of mythonym, mythologeme, mythotheonym, and mythoanthroponym in Uzbek linguistics. It analyzes the usage and functions of these terms in samples of folk oral creativity, particularly in epic narratives.

Keywords: myth, mythonym, mythologeme, mythotheonym, mythoanthroponym, linguoculturological unit.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются понятия мифоним, мифологема, мифотеоним и мифоантропоним в узбекском языкознании. Анализируются случаи употребления этих терминов в образцах народного устного творчества, в частности, в эпосах.

Ключевые слова: миф, мифоним, мифологема, мифотеоним, мифоантропоним, лингвокультурологическая единица.

KIRISH

Til – bu millatning ruhiyati, uning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi va madaniyatining ifodachisidir. Har qanday tilda mavjud bo‘lgan leksik birliklar, grammatik vositalar, stilistik vositalar, hatto bevosita tilda ifodalanmagan, ammo matnda aks etgan obrazlar xalqning tafakkuriga, dunyoni idrok etish shakliga bog‘liq bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, xalq og‘zaki ijodiyotidagi janrlar, xususan, dostonlar xalqning til boyligi, madaniy qadriyatlari va tasavvurlari bilan to‘yingan manbalar sifatida katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Adabiyotlarda qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui miflarda ifodalanishi aytiladi. Bu tasavvurlar koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, shuningdek, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi.

Ingliz manbalarida mif quyidagicha ta'riflanadi: "Myth – 1) a traditional story, especially one concerning the early history of a people or explaining a natural or social phenomenon, and typically involving supernatural beings or events; 2) a widely held but false belief or idea; 3) a misrepresentation of the truth; 4) a fictitious or imaginary person or thing; 5) an exaggerated or idealized conception of a person or thing"¹.

Yunon tilidan kirib kelgan mif tushunchasi afsona, rivoyat, asotir va mifologemalar bilan bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Biroq, ushbu tushunchalar orasida ma'lum tafovutlar mavjud. Mif va afsona xalq og'zaki ijodi janri sifatida xayolot, uydirma va to'qimaga asoslanadi va ular, odatda, so'zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek qabul qilinadi. Shunga qaramay, afsona mifdan farqli ravishda hajmi kichik, bayoni sodda va badiiy tasvir vositalaridan deyarli xoli bo'ladi hamda tuzilish jihatidan ertak, naql va rivoyatlarga yaqinlikni namoyon etadi.

Tilshunos olimlar mif va asotirlarni ifoda etuvchi leksemalarni turlicha talqin qiladilar. Jumladan, O.A. Cherepanova mifologik tushunchalarni ifoda etuvchi birliklarni mifologema atamasi orqali bayon etadi. V.A. Maslova esa mifologemani "afsona va asotirlar uchun muhim bo'lgan belgi yoki holat" deb izohlaydi. Ushbu ta'riflar asosida shuni aytish mumkinki, mifologiyaga oid leksik birliklar aniq izohlanishi qiyin bo'lgan, ko'pincha olimlar tomonidan bir-biriga yaqin yoki farqli talqin qilinadigan birliklardir.

Ilmiy adabiyotlarda mif termini bilan bir qatorda mifema, mifologizm va mifologik xarakter kabi terminlar ham qo'llaniladi. Masalan, A.P. Babushkinning fikriga ko'ra, "mifema inson tasavvurining mahsulotidir". K. Levi-Stross esa miflarni "atrofdagi mavjud haqiqatga ega bo'lmagan va afsonaviy mavjudotlarni ifodalovchi birlik" sifatida ko'radi.

O'zbek tilining izohli lug'atida mif atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "Mif – qadimda tabiat, jamiyat, inson hayoti va hodisalarining kelib chiqishini, ularning mazmunini tushuntiruvchi afsonaviy hikoyalar tizimi"². Bu ta'rifda mifning asosiy

¹ Oxford Language online dictionary. Second edition, 2019.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 6-jild, 2002, B. 230

funksiyasi – hodisalarni anglash va izohlash ehtiyoji asosida yuzaga kelgan madaniy model sifatidagi holati ifoda etilgan.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida mif “qadimiy jamoa ongining mahsuli bo‘lib, u insonlar tomonidan tabiat hodisalarini, hayot sirlarini, tarixiy voqealarni tushuntirishga urinish” deb talqin qilinadi³. Ushbu yondashuv miflarni xalq ongidagi arxaik bilimlar tizimi sifatida qaraydi.

Zamonaviy g‘arbiy ilmiy adabiyotlarda mifologiya, ayniqsa arxetiplar nazariyasi doirasida, keng tahlil qilinadi. Masalan, K.G. Jung fikricha, miflar – bu kollektiv ong osti bilan bog‘liq bo‘lgan arxetipik obrazlarning badiiy ifodasi bo‘lib, ular insoniyatning umumiy ruhiy tajribasini aks ettiradi⁴.

Y.M. Lotman esa mifni semiotik tizim doirasida tahlil qilib, uni belgilar orqali madaniyatda shakllanuvchi va avloddan-avlodga uzatiluvchi ma’no qatlamlarining asosiy shakllaridan biri deb qaraydi⁵. Bu yondashuvda mif matn sifatida qaraladi va uning tuzilmasi, semantik o‘zgaruvchanligi lingvokulturologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuni yoritishda tavsiflash, qiyoslash va leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek tilshunosligida mif va mifologema tushunchalari, asosan, xalq og‘zaki ijodi materiallari – dostonlar, ertaklar, afsonalar asosida tadqiq qilinmoqda. Nizomiddin Mahmudov mifni “xalq tafakkurining tarixiy bosqichlarida shakllangan timsollar orqali qadimiy dunyoqarashni aks ettiruvchi, til birliklari tarkibida yashab kelayotgan madaniy birlik” deb ta’riflaydi.

Shunday qilib, mif – bu yagona soddalikda aks etgan murakkab ma’no qatlamidir. U bir vaqtning o‘zida tarixiy, madaniy, psixologik, lingvistik va estetik birlik sifatida qaraladi. Ayniqsa, o‘zbek xalq dostonlari misolida ko‘rilganda, mifologik qatlamlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari, timsollar va arxetiplari bilan bog‘liq holda boy lingvokulturologik material manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Mifologema – bu atama mifologik tushunchalarning asosiy mazmuniy yadrosi, arxaik obraz va syujetlarning doimiy, takrorlanuvchi shakllarini bildiradi. Bu birliklar xalq ongida shakllangan mifologik qarashlarning timsoli bo‘lib, ular xalq dostonlari, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar kabi og‘zaki va yozma an’anada ko‘p uchraydi. Mifologemalar – bu xalq dunyoqarashining eng qadimiy qatlamlariga oid

³ O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 6-jild, 2002, B. 230

⁴ Юнг К.Г. Архетип и символ. – М.: Рефл-бук, 1997. – 432 с.

⁵ Лотман Ю.М., Семиосфера, 2000, С. 213–215

lingvomadaniy birliklardir. Mifologema, keng ma'noda, mifologik tizimning ajralmas qismi sifatida qaraladi va tilshunoslikda o'ziga xos leksik birlik sifatida til tizimida muayyan mifologik mazmunni saqlaydi.

Mifologema – bu xalqning qadimiy dunyoqarashi, qadimgi tasavvurlari, diniy va madaniy me'yorlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan so'z yoki ibora bo'lib, u mifologik ramzlar, xudolar, ma'naviy kuchlar, tabiat hodisalari yoki boshqa ko'plab mifologik obrazlarni ifodalaydi. Bu atama til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishda yordam beradi. Mifologemalar xalqning hayoti va dunyoqarashining ma'naviy-ruhaniy qatlamlarini aks ettiradi. Mifologema – nafaqat xalq dostonlarida, balki xalqning og'zaki ijodida ham muhim o'rin tutadi⁶.

Mifologema atamasi xalq dostonlarida yoki boshqa og'zaki ijod namoyonlarida tez-tez uchraydi, chunki ularning mazmuni ko'pincha mifologik obrazlar yoki tasavvurlar bilan boyitilgan bo'ladi. Masalan, «yovuz ruh», «ajdarho», «xudolar» kabi mifologik tasavvurlar, bir vaqtning o'zida bir qancha ma'nolarni o'z ichiga oladi. Har bir mifologema o'zi tasvirlayotgan mifologik obraz bilan birga, xalqning dunyoqarashi va uning tarixiy madaniyati bilan ham bog'lanadi⁷.

Mifologema – bu lingvistik tahlilga kiruvchi, til tizimining semantik qatlamida ko'rinadigan va mifologik mazmunni o'zida saqlovchi bir birlik bo'lib, u tilshunoslar tomonidan xalqning mifologik qadriyatlari va tasavvurlarini tahlil qilishda qo'llaniladi. Mifologemalar, tilshunoslikda mifologik obrazlarning til orqali ifodalangan shakllari sifatida, til va madaniyatning o'zaro aloqasini ko'rsatadi. Shuningdek, mifologemalar xalq dostonlarida mifologik mavzularni yoritishda va arxetiplarga asoslangan personajlarning xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi.⁸

O'zbek tilshunosligi doirasida mifologiya va miflar asosan xalq og'zaki ijodi materiallari – dostonlar, ertaklar, afsonalar orqali tadqiq qilinadi. Shuningdek, mifologiyaning tilshunoslik va madaniyatshunoslik kontekstida tahlili muhim o'rin tutadi. O'zbek xalq dostonlari, masalan, “Alpomish” va “Kuntug'mish” kabi asarlar mifologik tasavvurlarni, qadimiy dunyoqarashlarni va arxetiplarni aks ettiradi.

Mifologemalar xalqning qadriyatlari, diniy va axloqiy me'yorlarini ham aks ettiradi. Mifologemalar tahlili orqali nafaqat xalqlarning madaniy tarixini, balki ularning tilini, tafakkurini va dunyoqarashini ham chuqur anglash mumkin.

Mifonim (yun. mythos – rivoya, hikoya, va gr. onoma — ism, nom) – bu mifologik yoki afsonaviy tasavvurlarni ifodalovchi, til tizimida o'zining maxsus

⁶ Юнг К.Г., Архетип и коллективное бессознательное, 1997, С. 45–50

⁷ Лотман Ю.М., Семиосфера, 2000, С. 213–215

⁸ Махмудов Н., Халқ оғзаки ижоди ва адабий тил, 2008, Б. 55–58; Махмудов Н., Халқ оғзаки ижоди: назарий асослар, 2002, Б. 120–125.

semantik yukini o‘zida saqlaydigan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Mifonimlar xalqning qadimiy tasavvurlarini, diniy va madaniy me'yorlarini, shuningdek, mifologik obrazlarni aks ettiruvchi lingvistik birliklar sifatida qaraladi. Ular mifologik qadriyatlar va ramzlar asosida shakllanib, til orqali madaniyatning va dunyoqarashning ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida mifonim atamasi maxsus lingvistik birlik sifatida belgilanmagan, ammo mifologik so‘zlar yoki tasavvurlar bilan bog‘liq tushunchalar ko‘rsatilgan. Mifonimlar – bu mifologik tasavvurlarni, obrazlarni va ramzlarni til orqali ifodalovchi elementlardir. Bu atama nafaqat xalq dostonlarida, balki og‘zaki ijodning boshqa shakllarida ham uchraydi .

Zamonaviy lingvistikada mifonimlar – bu tilning semantik qatlamlarida yashirin holda saqlanib qolgan mifologik mazmunni ko‘rsatadigan so‘zlar yoki iboralardir. Ular tilshunoslar tomonidan xalqning mifologik tushunchalari, arxetiplari va ramzlari bilan bog‘lanadi. Mifonimlar mifologik obrazlarni, masalan, xudolar, ruhlar, ma'naviy kuchlar va tabiat hodisalarini ifodalovchi so‘zlar sifatida o‘rganiladi. Mifonimlarning lingvistik tahlili orqali, xalq dostonlaridagi mifologik qatlamlar, obrazlar va arxetiplarga oid ma'lumotlar aniqlanadi .

Ayniqsa, mifonimlar, xalq dostonlarida mifologik mavzularni yoritishda va arxetiplarga asoslangan personajlarning xususiyatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu so‘zlar, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, o‘tmish tafakkurining ramziy ko‘rinishlarini ifodalaydi.

Shu bilan birga, mifonimlarni tahlil qilish orqali, tilshunoslar xalqning qadimiy tasavvurlarini, ma'naviy qadriyatlarini, shuningdek, mifologik obrazlarning madaniy ifodasini aniqlashadi. Mifonimlar bu borada tilshunoslik, madaniyatshunoslik va folkloristik tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

O‘zbek xalqining og‘zaki ijodida diniy-mifologik tasavvurlar alohida o‘rin egallaydi. “Alpomish” dostoni ana shu qadimiy dunyoqarashlar asosida shakllangan bo‘lib, unda xalqning Tangriga, Ollohga, yuksak qudrat egalariga bo‘lgan ishonchi ifodalanadi. Jumladan, doston matnida “Tangri o‘zi yorlaqasin”, “Ollohning inoyati bilan” kabi iboralarning uchrashi bejiz emas. Ular mifoteonimlar sifatida xalq tafakkurida oliy kuchga ishonchning estetik ifodasiga aylangan.

Bu turdagi onomalar epik matnning mifik-falsafiy asosini mustahkamlaydi, xalqning ilohiy kuchlarga bo‘lgan ishonchini ko‘rsatadi. Bu fikr doston ichidagi diniy frazeologizmlar va ramzlarning funksional mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Mifoteonimlar – bu faqat diniy terminlar emas, balki xalq ruhiyatida mustahkam o‘rnashgan badiiy obrazlardir.

“Alpomish” dostonida bosh qahramonning qahramonligi oddiy jasorat emas, balki Tangri tomonidan berilgan vazifa sifatida ko‘rsatiladi. Alpomish obrazida Tangrining marhamati bilan qudratli, najotkor qahramon timsoli yaratilgan bo‘lib, bu mifik ildizlarga borib taqaladi.

Shuningdek, mifoteonimlar xalq e‘tiqodining ifodasi bo‘lishi bilan birga, doston ichida voqealar rivojining dramatik asosiga ham xizmat qiladi. Mifologik onomalar xalqning qadimiy dunyoqarashlarini, e‘tiqodiy tizimini dostonlarda aks ettiradi.

Diniy-mifologik motivlar, jumladan mifoteonimlar matnning semantik qatlami va dramatik zaminini shakllantiradi. Aynan shu asosda “Alpomish” dostonidagi diniy nomlar ham g‘oyaviy-badiiy vazifani bajaradi.

Shu tariqa, mifoteonimlar “Alpomish” dostonida xalq tafakkurining ramzi, kuch-qudrat va najot istagining timsoli, epik obrazlarning ilohiy asosga ega ekanini ko‘rsatuvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular dostonning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirib, xalq ruhiy dunyosining ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalq eposlari, xususan “Alpomish” dostoni mifologik qatlamlar va ularning til birliklaridagi aksini tadqiq qilish nuqtayi nazaridan beqiyos manba hisoblanadi. Ushbu doston tarkibida nafaqat syujet, obrazlar va voqealar, balki onomastik birliklar, xususan mifoantroponimlar orqali ham xalqning qadimiy dunyoqarashi, e‘tiqod tizimi va milliy qahramonlik konsepsiyasi ifodalangan.

Mifoantroponimlar – bu mifologik yoki tarixiy-mifik asosga ega bo‘lgan inson nomlari bo‘lib, ular qahramonning ilohiylik darajasiga ko‘tarilgan, ramziy kuchga ega obraz sifatidagi tasvirini mustahkamlaydi.

Avvalo, “Alpomish” nomining o‘zi mifoantroponim sifatida tahlilga loyiqdir. Bu ism “alp” – ya‘ni bahodir, mard, qahramon va “omish” – ya‘ni yashovchi, umr ko‘ruvchi komponentlaridan tarkib topib, epik qahramonning timsolini muqaddaslik, qudrat va davomiylik ramzlari orqali ochib beradi. Ushbu nom orqali Alpomish shunchaki jasorat ko‘rsatgan inson emas, balki mifik fazilatlarga ega, Tangrining inoyati bilan xalqini asraydigan najotkor qahramon sifatida talqin qilinadi.

Bunday nomlar xalq eposida “personajning soddalikdan yuksaklikka, kundaliklikdan ilohiylikka o‘tishini belgilovchi semantik marker” bo‘lib xizmat qiladi. Ya‘ni, mifoantroponim obrazning shaxsiy emas, milliy va hatto kosmik darajadagi funksiyasini ko‘rsatadi.

Dostonda Boybo‘ri ismi ham shunday mifologik-ma‘no yuklangan onomastik birlik sifatida ajralib turadi. “Boy” – obro‘li, zodagon, qudratli degan ma‘nolarni bildirsa, “bo‘ri” esa qadimiy turkiy totemik hayvon, urug‘ himoyachisi, muqaddas belgi hisoblangan.⁹ Bo‘ri obrazining totem sifatida ishlatilishi qahramonlar naslining

⁹ G‘ulomov A. *O‘zbek xalq eposi*. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – B. 107

yuksak kelib chiqishi, ularning mifik himoyaga ega ekani haqida ishora beradi. Demak, Boybo'ri ismi faqat otaning nomi emas, balki Alpomish urug'ining ilohiy-milliy asoslarini ifodalaydi.

Barchin ismi orqali esa epik ayol obraziga estetik va ilohiy fazilatlar yuklanadi. Ismning ohangdorligi, xalq orasida go'zallik, sabr, iffat, fidoyilik bilan bog'liq ramz sifatida mustahkamlanishi uning mifoantroponimik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Negativ kuchlarni aks ettiruvchi ismlardan biri – Qalmoq. Bu ism etnik, dushmanlik va salbiy mifik yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, doston ichidagi ijobiy va salbiy kuchlar qarama-qarshiligining nomlar darajasidagi ifodasidir.

Demak, "Alpomish" dostonidagi mifoantroponimlar oddiy ism emas, balki xalq ruhiyati, tarixiy xotirasi va mifologik tasavvurlarining badiiy ifodasidir. Ular nafaqat obrazlarni individuallashtiradi, balki epik matnning semantik va g'oyaviy qatlamlarini shakllantiradi, ramziy-estetik kuchni oshiradi. Har bir ism o'zida bir necha darajadagi ma'no – tarixiy, diniy, etnik va mifik qatlamlarni mujassamlashtiradi.

Mifologema — bu barqaror mifologik motiv, syujet yoki obraz, u madaniyatlararo vaqt va makonda takrorlanib keladi (masalan, qahramonning yer osti olamiga tushishi, suv onasi, ajdaho bilan kurash, olovdan o'tish, sehrli qurol topish).

Mifologema, ko'pincha, kollektiv ongda shakllangan arxetiplar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu tushunchani K. G. Jung psixologik jihatdan asoslab bergan.¹⁰

Xalq dostonlarida mifologemalar obraz (masalan, ajdaho, dev, parizod), voqea (masalan, sirdan tug'ilish, o'limdan qaytish), joy (masalan, tog', daryo, g'or) sifatida uchraydi va ular lingvokulturologik birliklar sifatida xalq tafakkurining semantik va mental kodlarini aks ettiradi.

...ishi yo'q, odam bilan hushi yo'q, o'zidan boshqa kishi yo'q; chekadi bang, aytadi vadavang. Bir qurib qolgan daraxtning ostiga borib, ko'mir qilmoqchi bo'lib olov yoqib, nashaning taraddudida edi, davlatqushi borib to'raning boshiga qo'ndi. Shahri Zangarning odamlari qushni quvalab borsa, qush bir devonaning boshiga qo'nib turibdi. Arkoni davlat otdan tushib, izzat-ikromlar bilan salom berib:

Taqsir podshoyim, yurtingiz qutli bo'lsin, - desalar, to'ra teskariga qarab, dim indamaydi. Oxirda odamlar qushni olib ketdilar. Podshoning arkidan boz uchirdilar. Boz yana kelib (Kuntug'mishga) qo'ndi. Bu mavrud ham «Yurtingiz qutli bo'lsin», - desalar, dim indamavdi.

Xalq dostonlarida uchraydigan mifologik obrazlar xalqning dunyoqarashi, qadimiy e'tiqodlari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan holda, til orqali ma'naviy merosni uzluksiz ravishda avloddan-avlodga yetkazish vositasi

¹⁰ Юнг К.Г. Структура и динамика психики. – М.: Рефл-бук, 1998. – 576 с.

bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, dostonlarda alohida ramziy yuklama kasb etgan mifonimlar bu jarayonda markaziy o‘rin tutadi. Shunday mifonimlardan biri – davlatqushi obrazidir. U “Kuntug‘mish” dostoni tarkibida til birligi sifatida emas, balki madaniy-semantik strukturaga ega mifologema — mifonim sifatida talqin qilinadi.

Dostonning muayyan epizodida davlatqushining navbatma-navbat bir necha kishilarning – avval hushi yo‘q to‘raning, so‘ngra devonaning va nihoyat Kuntug‘mishning – boshiga qo‘nishi orqali xalq tafakkuridagi qadimiy tanlanish arxetipi ifoda etiladi. Bu holat xalq mifologiyasida baxt, omad, saltanat va tangri rizosi ramzi bo‘lgan qush obrazining semantik transformatsiyasi sifatida izohlanadi.

Mazkur obraz ilk navbatda mifologik model asosida shakllanadi. Turkiy xalqlarning qadimiy e‘tiqodlarida qushlar, ayniqsa osmonga yaqin yashaydigan qushlar – humo, burgut, lochin – Tangri bilan aloqador mavjudotlar sifatida talqin qilingan. Davlatqushi esa, aynan ana shu mifik belgilarni umumlashtirgan holda, doston kontekstida qahramonlik, ma‘naviy yetuklik va davlatchilik timsoliga aylantiriladi.

XULOSA

Dostonning semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, davlatqushi real hodisa emas, balki simvolik akt orqali amalga oshadigan mifik belgidir. Uning harakati ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida shakllanadi: to‘ra ijtimoiy maqomi baland bo‘lsa-da, ma‘naviy jihatdan tuban, devona esa jamiyat chetida turgan kishi. Aksincha, Kuntug‘mish ruhiy qudratga ega. Shu sababli davlatqushi yakuniy tarzda unga qo‘nadi. Bu esa davlatqushining nafaqat omad va baxt belgisi, balki axloqiy ustunlik mezoni sifatida talqin qilinishiga asos bo‘ladi.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan, “davlatqushi” so‘zining mazmuni o‘zbek xalqining mentalitetida mavjud bo‘lgan baxt va nasiba osmondan keladi degan e‘tiqod bilan uzviy bog‘liqdir.

Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, mifologema tushunchasi mifologik matnlarda tez-tez uchraydigan va ularning semantik tarkibini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham mif va mifologema tushunchalarini alohida o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biri sanaladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. QOBILOVA, Z., & AHMADALIYEV, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASIDA ALISHER NAVOIY FAOLIYATINING YORITILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 183-189.

2. Ahmadaliyev, L. (2025). QAYUMOVLAR SULOLASI UY-MUZEYINI TASHKIL ETISHNING AMALIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 382-398.
3. Ahmadaliyev, L. (2025). “O ‘ZBEK ADABIYOTI NAMUNA DAFTARI” TAZKIRASINING ADABIY AHAMIYATI. *University Research Base*, 360-367.
4. Lochinbek, A. (2022). “XO ‘QAND TARIXI VA UNING ADABIYOTI”—MANBA SIFATIDA. *OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI*, 250.
5. Muhammadyusuf o‘g‘li, A. L. (2024). KULFAT IJODINING O‘RGANILISHI. *UBS Scientific Bulletin*, (4), 94-105.
6. XASHIMOVA, X. (2025). TERMINOLOGIK BAZANING YAGONA ELEKTRON PLATFORMASINI YARATISH ISTIQBOLLARI: TEXNIK TERMINOLOGIYANI STANDARTLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(6), 232-237.
7. Ermanbetova, S. (2024). POETIC SYNTAX IN THE POETRY OF HABIB SADULLA. *Академические исследования в современной науке*, 3(40), 190-194.
8. Rahmatova, G., & Fayzullayeva, O. (2025). NAZAR ESHONQULNING „MAYMUN YETAKLAGAN ODAM“ HIKOYASIDA OBRAZLAR TALQINI. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(12), 85-88.
9. MADALIYEVA, Z. (2021). WILLIAM FIERMANS SCIENTIFIC VIEWS ON TWENTIETH-CENTURY UZBEK LITERATURE. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 1335-1338.
10. Tojimatov, R. G. A. (2025). SAID AHMAD HAJVIY ASARLARIDA KINOYALI HAJVNING LISONIY XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(5), 461-467.
11. Tojimatov, R. (2025). NOUNS CONNECTED WITH THE NAMES OF HISTORICAL PERSONS IN THE WORKS OF SAID AHMAD HAJVI. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(5), 418-420.
12. Yuldashev, M., Ramazanova, S., & Tojimatov, R. (2022). Expression Of The Linguistic Concept Of “Motherland” In Muhammad Yusuf's Poetry. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10).
13. Xabibillayev, N. (2024). Mumtoz Adabiyotni Targ ‘Ib Etishda Adabiy Moslashtirishning Ahamiyati (—Lison Ut-Tayrl Ning Moslashtirilgan Matni Misolida). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 16, 65-71.

14. Nosirjon o'gli, N. K. (2024). TRADITIONAL INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF MORPHEME IN UZBEK LINGUISTICS. *American Journal of Philological Sciences*, 4(10), 53-56.
15. Ogli, N. K. N. (2024). ANALYSIS OF SOME WORDS IN UZBEK WITH COMPLEX MORPHOLOGICAL COMPOSITION. In *Next Scientists Conferences* (pp. 61-63).